

EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI KURASHISH BO‘YICHA

AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Axmedov Farxod Saydaliyevich

Malaka oshirish instituti Kasbiy tayyorgarlik fakulteti

Maxsus fanlar sikli o‘qituvchisi, podpolkovnik

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, ularni barvaqt oldini olish, ekstremizm, terrorizm va ularni moliyalashtirishdan kelib chiqaradigan xavf, tahdid va xatarlarni, shuningdek, mamlakatdagi millatlararo va konfessiyalararo munosabatlarni kompleks tahlil qilib, vaziyatning rivojlanish istiqbollari bo‘yicha prognozlarni hamda aniqlangan xavf, tahdid va xatarlarni kamaytirish va bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ekstremizm, terrorizm, jahon, strategiya, reabilitatsiya, integratsiya, radikalizatsiya, huquqbazarlik, jinoyat, profilaktika, millat, konfessiya, tahdid.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda o‘tkazilgan islohotlar natijasida jinoyatlarning barvaqt oldini olish va huquqbazarliklarga qarshi kurashishda yangi ish uslublari tatbiq qilinib, aholi va jamoatchilik bilan uzviy muloqot yo‘lga qo‘yildi, ushbu sohaga zamонавији axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng joriy etildi.

Jinoyatlarning barvaqt oldini olish va huquqbazarliklarga qarshi kurashishda davlat organlari va jamoat tashkilotlari o‘rtasida hamkorlik yanada kuchaytirildi.

Bugungi kunda ekstremizm va terrorizm alohida mamlakatlarning milliy xavfsizligi va umuman jahon hamjamiyatiga jiddiy tahdid uyg‘otayotgan omilga aylandi. Umumbashariy muammoga aylangan ekstremizm va terrorizmni jahon hamjamiyati faqat birgalikda, turli tor geosiyosiy manfaatlardan voz kechgan holda harakat qilibgina enga olishi mumkinligi aksariyat davlatlar tomonidan tan olingan ayni haqiqatdir.

Ekstremizm va terrorizmga ta’rif beradigan bo‘lsak:

Ekstremizm - ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo‘rlik bilan o‘zgartirishga, hokimiyatni zo‘rlik ishlatib egallashga va uning vakolatlarini o‘zlashtirib olishga, milliy, irqiylig, etnik yoki diniy adovat qo‘zg‘atishga qaratilgan harakatlarning ashaddiy shakllari ifodasi;

Terrorizm — siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog‘lig‘iga xavf tug‘diruvchi, mol-mulk va boshqa moddiy ob‘ektlarning yo‘q qilinishi (shikastlantirilishi) xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron-bir harakatlar sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishga majbur qilishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzishga, xavfsizligiga putur etkazishga, qurolli mojarolar chiqarishni ko‘zlab ig‘vogarliklar qilishga, aholini qo‘rkitishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan zo‘rlik, zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rkitish yoki boshqa jinoiy qilmishlar.

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar bugungi kunda butun dunyoda, jumladan O‘zbekistonda ham muhim ahamiyatga ega. Bu sohadagi islohotlar huquqiy, ijtimoiy, ta’lim va axborot sohalarida o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi. O‘zbekistonda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishda quyidagi muhim islohotlar amalga oshirilmoqda:

Huquqiy islohotlar: Terrorizmga qarshi huquqiy normalarni mustahkamlash: O‘zbekistonda terrorizmga qarshi kurashish uchun yangi qonunlar va qonunchilikdagi o‘zgarishlar kiritilgan. 2018-yilda "Terrorizmga qarshi kurashish to‘g‘risida"gi qonun qabul qilindi, bu terroristik xavf va ekstremistik harakatlarga qarshi samarali choralar ko‘rishni nazarda tutadi.

Terrorizmga qarshi tegishli agentliklar va davlat organlarining faoliyatini kuchaytirish: Milliy xavfsizlik xizmatining va ichki ishlari organlarining terrorizmga qarshi kurashishdagi roli muhim ahamiyatga ega.

Ta’lim va axborot: Ijtimoiy-tarbiya ishlari: YOshlarning ekstremizmga va terrorizmga kirishini oldini olish uchun ta’lim tizimida maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. Bu dasturlar yoshlarga din, millatlararo totuvlik va tinchlikni saqlashga oid

bilimlarni bergen holda, ularni radikalizatsiyaga qarshi turishga o‘rgatishni maqsad qilgan.

Axborot texnologiyalari: Internetdagi ekstremistik kontentni o‘z vaqtida aniqlash va uning tarqalishini oldini olish uchun davlat tarafidan monitoring va filtratsiya tizimlari kiritilgan. Bunda yoshlarning internetdagi xavfli tarmoqlardan himoya qilinishi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatlararo hamkorlik: Terrorizmga qarshi xalqaro hamkorlik: O‘zbekiston turli xalqaro tashkilotlar, jumladan BMT, SHHT kabi tashkilotlar bilan birlgilikda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga qaratilgan ishlar olib bormoqda. Bundan tashqari, xalqaro aloqalar orqali moliyaviy va axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

Reabilitatsiya va qayta integratsiya: Radikalizatsiyadan qaytish: Terroristik tashkilotlardan va ekstremistik harakatlardan chiqish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. Bu dasturlar diniy radikalizmdan, ekstremizmdan va terrorizmdan chiqqan shaxslarni jamiyatga qayta integratsiya qilishga qaratilgan.

Sotsial ijtimoiy ishlar: Nikoh va oila institutlariga ko‘mak: Radikalizatsiyaga uchragan shaxslarning oilalari bilan ishslash, ularni ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash ham ishga solingan.

Bu islohotlar ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishni samarali tashkil qilishga va tinchlikni saqlashga qaratilgan.

Olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlar natijasida fuqarolarda jinoyatchilikka qarshi kurashishga va huquqbazarliklarning oldini olishga daxldorlik hissi shakllandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagи «Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6196-son [Farmoniga](#) asosan, jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbazarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning yaxlit tizimini shakllantirish, ichki ishlar organlarining eng quyi bo‘g‘inidan respublika darajasigacha samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yish va zamonaviy ish uslublarini joriy etish orqali mamlakatimizda huquq-tartibot va qonuniylikni mustahkamlash, aholining tinchligi va

osoyishtaligini ta'minlash ichki ishlar organlari faoliyatini tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizmlari etib quyidagilar belgilandi.

- har bir mahalla, oila va shaxs kesimida jinoyatchilikning sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish orqali huquqbazarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishga oid muammolarni bevosita joylarning uzida hal etish;

- hududlarda jinoyatchilik ahvoldidan kelib chiqib, har bir tuman, shahar va mahallalarni toifalarga ajratish hamda hokimliklar, sektorlar va jamoatchilik bilan hamkorlikda “jinoyat uchoqlari”ni bartaraf etish uchun barcha zarur kuch va vositalarni jalg qilish;

- “respublika - viyaoyat - tuman – mahalla” tizimi asosida yaxlit boshqaruva va uzluksiz nazorat qilish mexanizmlarini joriy etish, ichki ishlar va boshqa davlat organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash borasidagi faoliyatini samarali muvofiqlashtirish orqali mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash;

- ichki ishlar organlari xodimlarining zamonaviy qiyofasini yaratish, ularning mas’uliyati va kasbiy salohiyatini oshirish, jinoyatchilikning yangi kurinishlariga qarshi kurashish uchun zarur kunikmalarni shakllantirish hamda sohani to‘liq raqamlashtirishga erishish.

Shuningdek, ichki ishlar organlarini aholining ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish, ularning fuqarolar, jamoat tashkilotlari hamda keng jamoatchilik bilan yaqin hamkorlikda, o‘zaro ishonch va hamjihatlik ruhida ishslashini ta'minlash, mahallalar, aholi turar joylari va butun yurtimizda qonun ustuvorligi, tinchlik-osoyishtalikni yanada mustahkamlash aholining tinch va farovon hayot kechirishini ta'minlash, jinoyatchilik va boshqa huquqbazarliklarga qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash, shuningdek boshqa hayotiy muhim vazifalarni amalga oshirishda alohida o‘rin egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 1-yuldagagi “2021-2026-yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi” PF-6255-sون Farmoniga asosan, vijdon va e’tiqod erkinligini, dinlararo va konfessiyalararo bag‘rikenglikni ta'minlash, diniy qarashlardan qat’iy nazar

fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, faol harbiy harakatlar olib borilayotgan hududlardan ayollar va bolalarni Vatanga qaytarish hamda ularni jamiyatga reintegratsiya qilishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishi yuzasidan bir qator ustuvor vazifalar belgilanib olindi.

2021-2026-yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy strategiyasining asosiy maqsadi - O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, milliy xavfsizlik, shuningdek, fuqarolarning ushbu sohadagi huquqlari va erkinliklarini ta’minlashga imkon beradigan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha samarali va bir vaqtning o‘zida muvofiqlashtirilgan davlat siyosati amalga oshirilishini ta’minlashdan iboratdir.

Strategiyani uch bosqichda amalga oshirish ko‘zda tutilmoqda.

Birinchi bosqichda 2021-yil quyidagicha rejalashtirilgan:

- strategiyani amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirishni ta’minlash, mazkur muammoni bиргаликда hal qilish uchun keng jamoatchilik va xalqaro tashkilotlarni jalg qilish;
- ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish sohasida O‘zbekiston qonunchiligini rivojlantirish istiqbollarini belgilash;
- ekstremistik va terrorchilik faoliyatiga qarshi kurashish bo‘yicha davlat hokimiyati va o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatining tashkiliy ta’milanganligi va uyg‘unligini takomillashtirish;
- vaziyatni monitoring va tahlil qilishning kompleks dasturlarini tashkil etish, shuningdek, muammolarni aniq belgilash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilmoqda.

Ikkinchi bosqichda 2022–2025-yillar quyidagicha belgilangan:

- ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish sohasidagi vazifalarni hal qilishga qaratilgan amaldagi qonunlarni va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish va yangilarini qabul qilish;
- milliy axborot makonini ekstremistik va terrorchilik mafkura kirib kelishidan qo‘sishma himoyalashga qaratilgan tizimni yaratish;
- strategiyani amalga oshirishda erishilgan natijalarni monitoring qilish;

- ekstremizm, terrorizm va ularni moliyalashtirishdan kelib chiqaradigan xavf, tahdid va xatarlarni, shuningdek, mamlakatdagi millatlararo va konfessiyalararo munosabatlarni kompleks tahlil qilib, vaziyatning rivojlanish istiqbollari bo‘yicha prognozlarni hamda aniqlangan xavf, tahdid va xatarlarni kamaytirish va bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish buyicha bir qator ustuvor vazifalar amalga oshirilmoqda.

Uchinchi bosqichda 2026-yil ushbu strategiyani amalga oshirish natijalarini umumlashtirish hamda mazkur sohada strategik rejalashtirish bo‘yicha yangi hujjatlarni ishlab chiqishga qaratilgan takliflarni tayyorlash, shuningdek, idoralararo darajada tashkiliy xarakterdagi choralar qabul qilinishini ta’minlash nazarda tutiladi.

Hujjatda qayd etilishicha, strategiyani amalga oshirish ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha huquqiy, tashkiliy va mafkuraviy mexanizmlarning samarali tizimini, shuningdek, jamiyatda bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish va boshqa imkoniyatlarni taqdim etadi.

Xususan, ekstremizmga qarshi kurashish borasidagi yondashuvlar konseptual jihatdan o‘zgardi. Bunda asosiy e’tibor ekstremizmning oqibatlari bilan emas, uning sabab va omillarini bartaraf etishga qaratildi. Mazkur jihatlar quyidagilarda o‘z aksini topdi.

Shu bilan birga, ekstremistik va xalqaro terrorchilik tashkilotlari diniy aqidalar niqobi ostida yoshlarni zo‘ravonlikka, milliy o‘zligini, madaniy-ma’rifiy va oilaviy qadriyatlarini yo‘qotishga undash yo‘li bilan jamiyatda zo‘ravonlik va radikal qarashlarni tarqatishni davom ettirmoqda. Bularning barchasi fuqarolarni ekstremistik va terrorchilik tashkilotlari safiga jalb qilish uchun shart-sharoit yaratmoqda.

Bundan tashqari, globallashuv jarayoni hamda xalqaro va mintaqaviy mojarolar transformatsiyasi davom etayotgan bir paytda, ekstremizm va terrorizmga qarshi samarali kurashish masalasi xalqaro kun tartibidagi asosiy mavzu bo‘lib qolmoqda.

Jangovar ziddiyatlar hududlaridagi vaziyatning keskinlashuvi, qo‘shni Afg‘onistonidagi ichki siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy holatning beqarorligi, milliy va xalqaro darajada sa’y-harakatlarni birlashtirishni talab qilmoqda.

Mazkur jarayonda O‘zbekiston fuqarolarining xorijiy davlatlarga, shu jumladan terroristik faollik yuqori bo‘lgan mintaqalarga mehnat migratsiyasi muammosi dolzarb bo‘lib qolmoqda. SHuningdek, mehnat migrantlarining ekstremistik va terrorchilik faoliyatiga, shu jumladan ularni moliyalashtirishga jalb qilinishi holatlari aniqlanmoqda.

Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasi oldida ekstremizm va terrorizmning oldini olish va chek qo‘yish hamda ularni moliyalashtirish manba va kanallariga barham berishga qaratilgan yanada samarali chora-tadbirlarni belgilash vazifasi turibdi.

«Xavfsiz shahar», «Xavfsiz xonodon», «Xavfsiz hovli» «Xavfsiz turizm» kabi huquqbazarliklarning oldini olishning innovatsion g‘oyalarini o‘z ichiga olgan konsepsiylar hayotga tatbiq etildi. Eng asosiysi, bu soha huquqbazarliklarning oqibati bilan kurashish emas, balki ularning oldini olish zarurligi haqidagi hayotiy tamoyil asosida isloh qilinmoqda.

O‘tgan davr mobaynida olib borilgan tizimli chora-tadbirlar yakuni bo‘yicha jinoyatlar va boshqa huquqbazarliklarning oldini olish va profilaktikasi, jamoat tartibini saqlash va aholi xavfsizligini ta’minlash, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan natijalarga erishildi.

Ichki ishlar organlari xodimlarini “Inson qadri uchun” tamoyili asosida davlatning yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, o‘z burchiga sodiq, vatanparvar va xalqparvar vakili etib tarbiyalash orqali aholining chinakam roziligidagi erishilmoqda.

Butun dunyoda kuchayib borayotgan radikalizm, ekstremizm, terrorizm, odam savdosi, giyohvandlik kabi xatarlar, afsuski, bizni ham chetlab o‘tmayapti. Lekin takror aytaman, musulmon ummatiga saboq bergan Imom Buxoriy, Imom Termiziyy, Imom Moturidiy kabi buyuk ulamolar etishib chiqqan bizning diyorimizda bu borada adashganlar, radikalizm va ekstremizm g‘oyalariga berilganlar bo‘lishi mumkinmi?

Biz jamiyatimizda har qanday radikallashuvga, yoshlarimiz ongini buzg‘unchi yet g‘oyalar bilan zaharlashga, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga, ma’rifat o‘rnini jaholat egallashiga yo‘l qo‘ymaymiz. Buning uchun nafaqat mas’ul tashkilotlar, balki barchamiz birgalikda muqaddas dinimizning insonparvarlik mohiyatini ochib

berish, farzandlarimizni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bo‘yicha oila, mahalla va ta’lim maskanlarida ish olib borishimiz zarur. Eng bebaho oliy ne’mat – tinchligimiz va osoyishtaligimizning qadriga etaylik, oilalarimiz, farzandlarimiz, kelgusi avlodlarimizning baxtu kamoli uchun bu ulug‘ boylikni asrab-avaylaylik!

Shu maqsadda yoshlarimizni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ona yurtga mehri va sadoqatini oshirishga yanada ko‘proq ahamiyat berishimiz kerak.

Yosh avlodimizni ana shunday barkamol, el-yurt uchun fidoyi insonlar qilib tarbiyalashda biz muhtaram nuroniyalarimizga tayanamiz.

Hayotimizning fayzu farishtasi bo‘lgan duogo‘y otaxon va onaxonlarimizning sihatgohlarda salomatligini tiklash, ularga mahalla va jamoat maskanlarida qo‘srimcha sharoitlar yaratishni davom ettiramiz.

Millati, tili va dinidan qat’i nazar, O‘zbekistonni o‘zining Vatani deb biladigan, uning ravnaqi uchun hissa qo‘shib kelayotgan har bir fuqaro bundan buyon ham davlatimiz va jamiyatimizning e’tibori va ardog‘ida bo‘ladi.

Millatlararo do‘slik, diniy konfessiyalar o‘rtasidagi hamjihatlik, ijtimoiy bag‘rikenglik muhitini yanada mustahkamlash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

Bu muhim masalada jamiyatimizning ma’naviy asoslarini mustahkamlash, madaniyat sohasini rivojlantirish, ilmiy-ijodiy tashkilotlar, muhtaram ziyorolarimiz faoliyatini qo‘llab-quvvatlash ham biz uchun ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘ladi.

Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g‘oyat og‘ir sharoitda ilm-ma’rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g‘oyalarini dadil ko‘tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqr o‘rganishimiz lozim. Ularning ulug‘ maqsadlar yo‘lidagi mardona kurashi va fidoyiligi Yangi O‘zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilishimiz zarur.

Fransiyadagi mashhur Luvr muzeyida o‘tkazilgan milliy ko‘rgazma xalqimizning noyob tarixiy merosi, betakror madaniyati va an’analariga xorijda qiziqish qanchalik yuqori ekanini ko‘rsatmoqda. Bunday tarixiy va madaniy boyliklarimizni yoshlarimizga

va xorijiy turistlarga yanada kengroq tanishtirish, muzeylarni zamon talablariga moslashtirish bo‘yicha alohida dastur amalga oshirilmoqda.

Dunyodagi hozirgi murakkab sharoitda bu vazifalarni amalga oshirish oson bo‘lmaydi. Lekin biz o‘tgan davrda katta bilim va tajriba to‘pladik. Eng muhimi, o‘z kuch va imkoniyatlarimizga bo‘lgan ishonchimiz tobora ortib bormoqda.

Shu bois, qanchalik qiyin bo‘lmasin, tanlagan yo‘limizdan hech qachon ortga qaytmaymiz. Ko‘zlagan marralarimizga albatta etamiz. Bu yo‘lda niyati ulug‘, qalbi pok, mehnatkash xalqimizga tayanamiz.

Bir tanu bir jon bo‘lib harakat qilsak, el-yurtimiz intilayotgan Yangi O‘zbekistonni albatta barchamiz birqalikda bunyod etamiz.

Islohotlarimizni har tomonlama qo‘llab-quvvatlab kelayotgan, barcha sinovlarni mardona engib, o‘zining fidokorona mehnati bilan jonajon Vatanimiz ravnaqiga beqiyos hissa qo‘shayotgan mard va oljanob, bag‘rikeng xalqimizga yana bir bor bu ekstremizm va terrorizm kabi yot g‘oyalardan ogoh bo‘lishimiz davr talabi ekanligini tushuntirib borishimiz darkor.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentyabr kunidagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi 407-son Qonuni;
2. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 30-iyuldagagi “Ekstemizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi O‘RQ-489-son Qonuni;
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagи «Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6196-son [Farmoni](#);
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 1-iyuldagи “2021-2026-yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi” PF-6255-son Farmoni;

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagи “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2833-sonli Qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi “Ichki ishlар organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2896-sonli Qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi “Ichki ishlар organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5050-son qarori;
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-apreldagi “Ichki ishlар organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5076-son qarori;
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi “Ichki ishlар organlari kadrlari bilan ishslash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3413-sonli Qarori.